
TOSHLOQDA ICHKI YO'LLAR YAXSHILANMOQDA

Toshloq tumanida yo'llar sifatini yaxshilash hamda aholi va transport vositalari harakatlanishi uchun qulayliklar yaratish maqsadida asosiy va ichki yo'llarda ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

Ayni kunlarda "Xonariq", "Mehnatobod", "Chek", "Yangiyo'l" hamda "Yakkavut" MFYlar hududidagi ichki yo'llar shag'allashtirilmoqda.

Bundan tashqari tumandagi boshqa mahallalarda ham asosiy va ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari bosqichma-bosqich davom etmoqda.

2023-07-04 16:12:14